

**O'ZBEKISTON EKOLOGIYA PARTIYASINING
HUQUQIY ASOSLARI**

Ilmiy rahbar:

Inagamova Mafura Muxtarxonovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Nimatullayeva Umida Akbaraliyeva

Toshkent mintaqaviy temir yo'l uzeli

kadrlar bo'limi noziri

O'tmishda atrof muhit holatiga e'tiborsiz munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan me'yordan ortiq foydalanish va ekologik talablarga bepisand munosabatda bo'lish Orol dengizi qurishi, cho'llanish, yer va suv resurslarining tanazzuli, o'simlik va hayvonot dunyosi genofondining yomonlashuvi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, ko'p miqdordagi sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarning hosil bo'lishi kabi bir qator global va mintaqaviy ekologik muammolarni paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu muammolar iqlim o'zgarishi sodir bo'layotgan sharoitlarda yanada yaqqolroq va kuchliroq namoyon bo'lib, zamonaviy O'zbekiston uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va uni sog'lomlashtirish masalalarini yanada dolzarb qilib qo'yimoqda.

Mustaqil rivojlanish yillarida mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish borasida muayyan tajriba orttirildi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida ilg'or xalqaro talablarga javob beradigan fundamental normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Mazkur sohada 30 ga yaqin qonunlar qabul qilindi va 300 dan ortiq normativ hujjatlar tasdiqlandi. Biroq, mazkur sohadagi vazifalarning ko'lami mamlakatda ekologik holatni yaxshilash va yuzaga kelgan muammolarni yaxlit holda hal etishda jamiyatning barcha kuchlarini sa'y-harakatlarini birlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish zaruratini qo'yimoqda.

Shu bilan birga, respublikada hudud rahbarlari, ekologiya va atrof-muhitni hamda huquqni muhofaza qilish organlarining e'tiborsizligi natijasida sohada o'tgan davrda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilgan, ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo'lmas darajada zarar yetkazilgan.

Xususan, *birinchidan*, hududlarda, ayniqsa shaharlarda havo ifloslanishi bo'yicha holat tobora yomonlashib bormoqda, atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarning yukini kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilmagan;

ikkinchidan, daraxtlar va butalarni kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan;

uchinchidan, daraxtlarning ildiz tizimlarini beton va asfalt bilan qoplash, ularga turli elektr chiroq va reklama moslamalarini ilib qo'yish daraxtlarning jiddiy shikastlanishiga sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, jamiyatda hayvonlarga, shu jumladan uy hayvonlari va qarovsiz hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lish holatlari ko'payib bormoqda, ularni identifikatsiya, chiplash, vaksinatsiya va sterilizatsiya qilishning zamonaviy tizimi mavjud emas;

beshinchidan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda chorva mollari nazoratsiz va tizimsiz boqilishi holatlarining ortib borishi, yer osti suvlaridan ilmiy asoslarsiz foydalanish ekotizimlarning buzilishiga, katta yer maydonlari degradatsiyasining ortishiga hamda ularning cho'llanishiga olib kelmoqda, oqibatda iqlim o'zgarishining ta'siri kuchaymoqda, insonlar hayoti va sog'lig'iga xavf tug'ilmoqda.

Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish va bunga qarshi samarali mexanizmni joriy etish maqsadida, 2008 yildan buyon faoliyat yuritayotgan «O'zbekiston Ekologik harakati»ning tajribasini saqlab qolish va yangi siyosiy kuchga o'tkazishga qaror qilindi hamda 2019 yil 8 yanvarda O'zbekiston Ekologik partiyasining Ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi, partiyaning Dasturi, Ustavi va ramzlari tasdiqlandi va uning boshqaruv organlari saylandi va Adliya vazirligida ro'yxatga olindi.

Partiya atrof muhit va fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanish bo'yicha faoliyatda ongli ravishda va mas'uliyat bilan ishtirok etadigan, umumiy qarashlarga, qiziqishlarga va mushtarak maqsadlariga ega bo'lgan hamda mamlakatning barqaror rivojlanishi va ekologik xavfsizligi ta'minlash bo'yicha jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishga yo'naltirilgan siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi mamlakat fuqarolarini ixtiyoriylik asosida birlashtiradi.

Partiya 14 ta hududiy va 206 ga yaqin tuman va shahar partiya tashkilotlaridan iborat bo'lib, boshlang'ich partiya tashkilotlari ko'plab mahallalarda, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda faoliyat yuritadi. 2023 yilning olti oyi yakuni bo'yicha 453 mingdan ziyod fuqaro «O'zbekiston Ekologik partiyasi a'zosi»ga aylandi, statistik tahlillarga ko'ra ulardan 46,8 foizi ayollar, 39,8 foizi yoshlarni tashkil etmoqda.

Partiya tomonidan global muammolarni hal etish yo'lida bir qator ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, Orol dengizining qurishi insoniyat tarixidagi dunyoning eng yirik ekologik fojialaridan biri bo'ldi. Sahroga aylangan dengiz tubidagi tuzlar, qum-chang va zaharli o'g'itlar insonlar hayoti va tabiatni xavf ostiga qo'ygan. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida O'zbekiston Ekologik partiyasi turli xil chora-tadbirlar ishlab chiqdi. Bular sirasiga suvsizlikka chidamli o'simliklar ekish orqali Orol dengizi atroflarini ko'klamzorlashtirish ishlari boshlandi. Ya'ni saksovul ekish orqali saksovul o'rmonlari tashkil etildi. Saksovullar tuproqdagi chang-tuzlarni shamol uchirishini to'xtatadi. Shu asno Orol tubidagi zaharli tuzlar osmonga

ko'tarilishi kamayadi. Hozir O'zbekistondagi Orol dengizi tubining yettidan bir qismi yoki yarim million gektari saksovul o'rmoniga aylantirilgan. Hozirgi kunda, ayrim manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Orol dengiziga suv qaytish boshlangan.

Yurtimizning barcha tuman va shaharlardagi ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar inventarizatsiya qilinib, ularning to'liq ro'yxati shakllantirildi. Orolbo'yida o'rmonzorlar barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga ko'maklashish maqsadida partiya faollari tomonidan "Orolga madad" shiori ostida saksovul urug'larini yig'ish bo'yicha xayriya hasharlari tashkil etildi. Faoliyat davomida amaliy tadbirlarga, shu jumladan, daraxtlar ekish aksiyalari, ekologik hasharlar o'tkazishga jiddiy e'tibor qaratildi.

Xorazm viloyatining Bog'ot, Shovot, Yangiariq tumanlaridagi ta'lim muassasalariga soatiga 500 litr suvni tozalaydigan suv tozalash uskunalari o'rnatildi, ushbu hududlarda "Do'stlik bog'lari"ga asos solindi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq vaziyatni o'rganib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mamlakatimiz hududida qalinligi 40 mikrondan kam polimer plyonkali paketlar (eksport uchun ishlab chiqarilgan, tutqichsiz ishlab chiqarilgan va ichki foydalanish uchun rulonlarda sotiladigan tovarlarning ajralmas qismi bo'lgan polimer plyonkali paketlar, shuningdek, biologik parchalanadigan polimer materiallar bundan mustasno)ni ishlab chiqarish taqiqlangan. Biroq bugungi kunda bunday paketlarni ishlab chiqarish va undan foydalanish hamon davom etmoqda. Ushbu plastik paketlar parchalanishi uchun 200 yildan ko'proq vaqt talab etiladi. Boz ustiga, chiqindi poligonlarida to'planib qolgan paketlar atrof-muhitga zarar yetkazmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Ekologik partiyasi hukumatga amaldagi polietilen paketlar o'rniga biologik parchalanadigan paketlardan foydalanish bo'yicha taklif bilan chiqdi. Partiyamiz "ECO PACK" MChJ mutaxassislarini jalb qilgan holda, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan biologik parchalanadigan muqobil paketlar namunalarini ishlab chiqdi.

Ushbu paketlarga Buyuk Britaniya taniqli laboratoriyasining ijobiy sertifikatini taqdim etildi. Oddiy sharoitda ushbu paketning biologik parchalanish davri taxminan sakkiz oyga tengdir. Bundan tashqari, parchalanish jarayoni havo, quyosh nuri va tabiiy muhit ta'sirida boshlanadi. Parchalanishning yakuniy natijasi, bu o'simlik uchun o'g'itga aylanadigan biomassadir.

Shulardan kelib chiqib, partiya an'anaviy polietilen paketlarni sifat jihatidan kam bo'lmagan, turli o'lcham va qalinlikda tayyorlanishi mumkin bo'lgan, biologik parchalanadigan paketlarga almashtirishni taklif etmoqda. Taklif qilinadigan biologik parchalanadigan paketlarning narxi (ommaviy ishlab chiqarish sharoitida) 230 — 240 so'mdan oshmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maishiy va qurilish chiqindilari muammosidan tashqari, sanoat chiqindisi bilan bog'liq muammo ham mavjud. Respublikamizda hozir kimyo sanoatida hosil bo'lgan fosfogips chiqindisi qariyb 80 mln. tonna, shu jumladan, Toshkent viloyatida 67 mln. tonna va Samarqand viloyatida 14 mln. tonnani tashkil etadi.

O'zbekiston Ekologik partiyasining tashabbusi bilan O'zbekistonda birinchi marta 2019-yil 25-oktyabr kuni Nukus shahrida bo'lib o'tgan yuqori darajadagi Orol konferensiyasida “Biz kelajak uchun javobgarmiz!” shiori ostida “Aral marathon” xalqaro ekologik marafoni o'tkazildi. Bu marafon O'zbekistonning 6 ta joyida, ya'ni Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Nukus va Mo'ynoqda 30 ming kishi ishtirokida bo'lib o'tdi. Marafonning asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasining ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi, deb e'lon qilinishiga, Orol fojiasi, haqiqatan ham, global miqyosdagi muammo ekanligiga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishdan iborat bo'ldi.

Ekopartiya qoshida tashkil etilgan “Ishonch telefoni”ga kelib tushayotgan murojaatlar asosida sanoat korxonalarida jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish tizimli yo'lga qo'yildi. Bugungi kunga qadar 7 ta yirik sanoat korxonasida jamoatchilik eshituvlari tashkil etildi. Bu eshituvlarni yuqori saviyada tashkil qilish va ularning samaradorligiga erishish, qolaversa, vaziyatni xolis baholash uchun korxonalariga tutash hududlarda istiqomat qiluvchi aholi o'rtasida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish amaliyoti joriy etildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «O'zbekiston Ekologik partiyasi» shahar va qishloqlarda tozalikni yo'lga qo'yish, tabiiy suv havzalari, tog' va o'rmonlarni asrab qolish, chiqindilarni yig'ish, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini takomillashtirish, aholining turmush darajasini va sifatini oshirish uchun o'tgan to'rt yil davomida bir qator ijobiy natijalarga erishdi.